

## AHOLI TURAR JOYLARIDA YONG`IN RISKLARINING OLDIN OLİSH MUNOSABATLARI

**Aziz Zikriyoyev Sadullooyevich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Jahon iqtisodiyoti va XIM" kafedrasini dotsenti, (PhD)

email: [a.zikriyoev@tsue.uz](mailto:a.zikriyoev@tsue.uz)

### ARTICLE INFORMATION

Volume: 1

Issue: 8

DOI:[https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1\\_iss8/a1](https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss8/a1)

### ABSTRACT

Mazkur maqolaning maqsadi respublika aholi uy-joylarida yong`in risklarini boshqarish holatini tahlil qilish, aholining muayyan risklarga tayyorlarlik darajasini aniqlash, shuningdek mulk va jamoalarning farovonligini ta'minlashning muhim jihatlarini o'rganishga qaratilgan. Shu sohada davlatlaning islohotlari, qurilish tashkilotlari, uy-joy fondini boshqaruvchi kompaniyalar va xonodon egalarining o'zaro hamfikrlikda yong`in xavfini olidindan baratarf etish masalalarini ilmiy jihatdan tadqiq etish natijasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni nazarda tutadi.

### KEYWORDS

*Turar-joy, aholi turmush farovonligi, mulk shakli, ijtimoiy status, evakuatsiya rejasi, favqulodda qarorlar qabul qilish, o't ochirish vositalari, sezuvchan maxsus vositalar, yong`in xavfsizligisi baholash.*

### Kirish (Introduction/Введение)

XXI asrda inson kapitalining yuqori darajasiga intilayotgan mamlakatlarda aholining turmush darajasi, yashash tarzi va sog`ligi hamda mulkini himoya qilish xalqaro darajadagi konvensiya, tavsiyanoma, standartlar bilan tartibga solinib boriladi. Shuningdek, BMT Taraqqiyot Dasturining 17 Barqaror Rivojlanish Maqsadlari, sanoat 4.0, yashil iqtisodiyot, sun`iy intellect, inson-mashina-atrof-muhit global darajada barqaror o'sishni ta'minlash zarurati ortib bormoqda. Jahan banki tomonidan mamlakatlarni turli darajada rivojlanish imkoniyatlarini chuqur tahlil qilgan holda milliy iqtisodiyotlarni geografik joylashushi, iqlim sharoitlari, tabiiy resurslari, texnologik tariqqiy etishi, iqtisodiy salohiyatini belgilab berishini so'ngi 20 yil mobaynida o'z taraqqiy yo`xaritalarida aks ettirib kelmoqda.

### Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Literature review/Литературный обзор.

Turar-joy binolarida yong`in xavfini boshqarish - bu aholining xavfsizligini ta'minlash uchun e'tiborni talab qildigan muhim jihat. Turli tadqiqotlar yong`in xavfsizligi choralarini takomillashtirish bo'yicha tushuncha beradi. Ko'p qavatlari binolarda keksa odamlar uchun mo'ljallangan yong`in xavfini baholash tizimlarini ishlab chiqish juda muhimdir [1]. Bundan tashqari, yong`in signalizatsiya tizimlarning mayjudligi turar-joy yong`inlarda o'lim xavfini sezilarli darajada kamaytiradi va yong`in xavfini boshqarishda bunday tizimlarning muhimligini ta'kidlaydi [2]. Bundan tashqari, loyqa nazariya va dalillarni asoslash usullarini o'z ichiga olgan yangi model turar-joy binolarida yong`in xavfini samarali baholash va optimallashtirish uchun moslashuvchan yondashuvni taklif etadi [3]. Ushbu tadqiqot natijalarini hisobga olgan holda, manfaatdor tomonlar moslashtirilgan xavflarni baholash tizimlarini joriy etish, yong`in signalizatsiya tizimlaridan foydalanish va yong`in xavfini samarali ravishda kamaytirish uchun ilg`or modellashtirish usullarini qo'llash orqali turar-joy binolarida yong`in xavfsizligini boshqarishni yaxshilashlari mumkin [4]. Manan T. terrasli uylarni ayniqsa yuqori xavfli deb aniqladi, yong`in sodir bo'lish ehtimoli ortib bormoqda [5]. Hamida K. Saudiya Arabistonidagi turar-joy ob'ektida yong`in xavfsizligi choralar ko'rigan bo'lsa-da, chiqish, yong`in eshilklari va o'chirish tizimlarini yaxshilash zarurligini aniqladi [6]. Herr F. turar-joy binolarini loyihalashda halokatli yong`inlar xavfini baholash tizimini

ishlab chiqdi, bunda o'limga olib keladigan omillarga va bino dizayniga e'tibor qaratdi [7]. Andrea S. ko'p qavatlari turar-joy binolarida yong`inlarning oldini olish bo'yicha strategiyalarni taklif qildi, bunda binolarni boshqarish va aholining ishtiroti rolini ta'kidladidi [8]. Ushbu tadqiqotlar birgalikda yong`in xavfini har tomonlama baholash va turar-joy binolarida samarali oldini olish choralarini amalga oshirish zarurligini ta'kidlaydi.

### Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Tasviriy statistika ma'lumotlar to'plami, Pearson juft korrelyatsiya testi, birinchi draajali oddiy tog`ri chiziqli regressiya tmodeli (OLS), muvofiqlik testi (Goodness of Fit Test), heteroskedastlik holatini Breusch-Pagan testi, modeling to`g'ri tanlanganlik Linktest testidan foydalanimdi.

### Olingan natijalar (Results/Результаты).

Olib borilgan ijtimoiy natijasida respublikadagi 3002 ta xonadonda yong`in risklarining oldini olish, ularni bartaraf etish, qarshi kurashishda davlat, aholi hamda ixtisoslashgan tashkilotlarni yagona maqsadaga birkirish chora tadbiralarini aniqlandi, Shuningdek, aholi turmush farovonligini ta'minlashda professional boshqaruv tizimini ishlab chiqishda yong`in evakuatsiya rejasi, favqulodda qarorlar qabul qilish, o't ochirish vositalariga zarurat va arid qilish qobiliyatiga, uylarda yong`inlarni sezuvchan maxsus vositalar o'rnatish imkoniyatlarini hozirgi kundagi yong`in xavfsizligisi darajasini baholash o'rtasidagi munosabatlar asoslangan.

### Tahlillar (Analysis/Анализ).

Imga va yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyotlarda aholi, korxona-tashkilot va davlat o'rtaqidagi o'zaro ilmiy, xalq boyligi va boshqaruv munosabatlaridagi turli rivojlanish modellari mamlakatlarda yuqori darajada inson kapitali, barqaror taraqqiyot, sog`liq va xavfsizlik natijasida dunyo hamjamiyati orasida o'z rivojlanish modeleni targ`ib qilib ulgurdi. Kamaytirish (reduce), qayta foydalanish (reuse) hamda qayta ishlab chiqarish (recycle) tushunchalari istalgan mamlakatda ayniqsa, iqtisodiy-moliyaviy shok holatidagi, tabiiy resurslar cheklangan, tanqis yuqori texnologiyalarga yo'naltirigan inson resurslari, turbulentlik yoqasiga yaqinlashayotgan, xalqaro hamkorlik, innovatsiya va transfer texnologiyalarni ko'chirib olib o'tish, global darajada raqobatbardoshlik

Maxsus son 2024

imkoniylatlari kabi 21 asr rivojlanish ustunlarini trend darajada isloq qish davr talabi bo`lib qolmoqda.

O`rtachadan past darmadli (low middle income country) O`zbekistonda inson kapitalining so`ngi yillardagi rivojlantirishga qaratilgan islohotlar aholining ilm olishini kengaytirish, salomatlik darajasini yaxshilash, jamg` armalarning ortib borishi aholining demografik xususiyatlarga ham o`z ta`sirini o`tkazdi. Tug`ilishning ortib borishi serfanzard o`zbek oilalarida tarixiy orzu-havas mulkchilikning yangi to`lqini shakllanishiga sabab bo`ldi. Aholini uy-o`yo bilan ta`minlash maqsadida bozor tamoyillari joriy qilingani natijasida yuzlab xususiy buyurtmachi kompaniyalar shakllandi. Zamonaliviy binokorlikning sement, gazoblok, g`ish va yig`ma temir-betonli 60 ming xonadonli ko`p qavatli uylar barpo etildi. Endilikda yanada ustuvor vazifa bu ahoi yurarojalarida yashovchilarning xavfsizligi va farovonligini ta`minlash ilk vazifaga aylandi. Xususiy, ijara yoki ipoteka asosidagi uy egalari o`z uylarida sog`liq, mulk hamda atrofmuhitni saqlash muammolarini qaytayta ko`rib chiqishlari kerak bo`ladi. Chunki, O`zbekistonda 2022-yilning o`tgani 5 oyi davomida 3449 ta yong`in sodir bo`lgan. Buning oqibatida 82 kishi jarohat olgan bo`lsa, 48 kishi halok bo`lgan.

Ma`lum qilinishicha, ushbu ko`rsatkichlar o`tgani yilning mos davriga nisbatan kamaygan — yong`inlar soni 567 taga, jarohat olganlar — 26 taga, halok bo`lganlar 8 taga. Tahillarga ko`ra, kunlarning keskin isib ketishi evaziga may oyi va iyun oyining birinchisi o`n kunligida yong`inlar bilan bog`liq vaziyat faollashgani kuzatilmoxda. Ushbu davrda sodir bo`lgan yong`inlar 981 tani tashkil etib, 106 tasi qurigan o`simliklarning yonishi, 665 tasi aholi turar joylari va 210 tasi boshqa obyektlarga to`g`ri kelgan. Turar-joy binolari ichidagi yong`inlarning halokatlari potensiali yong`in xavfsizligini boshqarshining mustahkam usullarini joriy etishning muhim ahamiyatini ta`kidlaydi. Har yili son-sanoqsiz odamlarning hayoti fojiali tarzda o`zgaradi va turar-joy yong`inlari tufayli qimmatbaho mulklar yo`qoladi. Ushbu hodisalar nafaqat halokatlari insoniy yo`qotishlarga olib keladi, balki jamoalarga katta moliyaviy va hissiz musibatlarni ham yuklaydi. Biroq, bunday fojialarning ko`pchiligidagi faol choralar va yong`in risklarini boshqarshining samarali strategiyalari orqali oldini olish mumkin.

1-jadval

## Tadqiqotning tasviriy statistikasi

Variable	Obs	Mean	Std. Dev.	Min	Max
Oldini_olish_bahosi	3002	5.414	2.318	1	10
MATERIAL					
Beton	3002	.198	.398	0	1
Gaza_shlaka_blok	3002	.03	.171	0	1
Paxsa	3002	.202	.401	0	1
Plshgan_gisht	3002	.543	.498	0	1
Yog_och	3002	.028	.164	0	1
MULK_shahidi					
Jara	3002	.153	.36	0	1
Kredit	3002	.046	.209	0	1
Xususiy	3002	.801	.399	0	1
IJTIMIOV_status					
Davlat_ischchisi	3002	.334	.472	0	1
Tadbirkor	3002	.474	.499	0	1
Tadqiqotchi	3002	.103	.303	0	1
Uyda	3002	.089	.285	0	1
EVALUATIVIY_rej-i					
Ha	3002	.419	.494	0	1
Yo`q	3002	.581	.494	0	1
FAYOLODDA_qarov					
01_tелефон	3002	.018	.132	0	1
101_tелефон	3002	.419	.493	0	1
Birxonga_yordamlashish	3002	.157	.363	0	1
Q.chirishga_harakat	3002	.172	.577	0	1
O`sish_ko`magazinman	3002	.113	.317	0	1
Uyini_tark_etish	3002	.122	.328	0	1
OT_ACHIRISH_vacasi					
ha	3002	.219	.414	0	1
yuq	3002	.781	.414	0	1
SEHUVCHAN_maxsus					
ha	3002	.129	.336	0	1
yo`q	3002	.871	.336	0	1
YONGIN_xavf_bahosi					
o`ta_xavfi	3002	.222	.415	0	1
past	3002	.501	.5	0	1
xavfi	3002	.278	.448	0	1

Tadqiqot so`rovnomasini viloyatlar kesimida o`rganilganida quyidagi tahillilar aniqlandi. Andijon hududdan 135 ta respondent qayd etilgan bo`lib, umumiy ko`rinishlarning 4,50 foizini tashkil qiladi. Buxorodan 138 ta respondent, bu umumiy ko`rsatkichning 4,60%, Farg`onadan 219 ta respondent 7,30%ni tashkil qilgan. Masalan, Jizzax, Namangan, Navoiy, Qashqadaryo, Qoraqalpog`iston Respublikasi va Samarqand viloyatlar o`xshash parametrleriga ega. Lekin, Toshkentdan 1028 respondent qatnashib, bu umumiy sonining 34,24 foizini tashkil qiladi.


Ma`lumotlarning tasviriy statistikasini davomi ettirganholda Stata 18.0 dasturi vositasida sixplot chizmasiga ko`ra 6 ta chizmani o`zida aks ettirgan tahillarga e`tibor qaratamiz. Bu cizma o`zgaruvchining taqsimlanishining turli tomonlarini aks ettiruvchi olti panelli grafik hisoblanadi. Har bir panelda histogramma, cuti grafigi, oddiy ehtimollik

2-jadval

## Hudud o`zagaruvcising tasviriy statistikasi


Hudud	Freq.	Percent	Cum.
Andijon	135	4.50	4.50
Buxoro	138	4.60	9.09
Farg`ona	219	7.30	16.39
Jizzax	92	3.06	19.45
Namangan	179	5.96	25.42
Navoiy	138	4.60	30.01
Qashqadaryo	321	10.69	40.71
Qoraqalpog`iston R	101	3.36	44.07
Samarqand	197	6.56	50.63
Sirdaryo	37	1.23	51.87
Surxonadaryo	73	2.43	54.30
Toshkent	1028	34.24	88.54
Toshkent viloyat	296	9.86	98.40
Xorazm	48	1.60	100.00
Total	3002	100.00	

grafigi, kvant-kvantil chizma, boshqoli chizma va poya va barg chizmasi kabi turli xil ma`lumotlarni izohlaydi. Masalan, boxplot bog`liq ozgaruvchiga jami 3002 respondnetning 75 foizi (2250 respondnet) yong`inlarning oldini olish bahosini 4-7 oralig`ida baholagan bo`lsa medianasi esa 5 deb topilgan (1-rasm).




1-rasm. Yong`inlarning oldini olish bahosi o`zgaruvchising sixplot chizmasi

O`rta ta`lim darajasidagi uyda qoluvchi uylarda yong`in riskini ekspertizasidan o`tkazilishiga qarshilik bildirgan respondnetlar yong`inlarning oldini olish bahosini o`rtachasi 2.5/10 balga teng. Lekin, doktorlik darajasidagi tadqiqotchilar uylarda yong`in riskini ekspertizasidan o`tkazilishiga qarshilik bildirgan respondnetlar yong`inlarning oldini olish bahosini o`rtachasi 3.2/10 balga teng (2-rasm).



2-rasm. Yong`inlarning oldini olish bahosini ijtimoiy status, ta`lim darajasi va yong`in riski ekstertizasining nisbatan gistogrammasi

Quyidagi 3-rasmda yong`inlarning oldini olish bahosini binoning qurilish materiallariga nisbatan histogrammasi ifodalangan bo`lib, unda betondan qurilgan turar joylarida aholi yong`inlarning oldini olish bahosini 1-10 kategoriya oralig`ida ifodalagan.



3-rasm. Yong`inlarning oldini olish bahosini binoning qurilish materiallariga nisbatan gistogrammasi

Maxsus son 2024

3-jadvalda turar-joy binolarida yong'in xavfini boshqarish bilan bog'liq turli o'zgaruvchilar o'ttasidagi juftlik Pearson korrelyatsiyasi ifodalamoqda. Testning H0 gipotezasiga ko'ra o'zgaruvchilar bir-biridan mustaqil (variables are independent from each other) shaklini rad etib Hamuqobil gipotezani qabul qilishimiz uchun p<0.05 oralig'id abo'lishi shart. Aks holda o'zaro hech qanday munosabat yo'q deb topiladi. Masalan, yong'inlarning oldini olish bahosi (1-o'zgaruvchi) bilan evakuatsiya rejasni (2-o'zgaruvchi) 0,182\* ( $p<0.1$  qiymat oralig'ida statistic jihatdan ahamiyatli) teskari korrelyatsiya qayd etgan. Salbiy korrelyatsiya shuni ko'rsatadiki, 1 o'zgaruvchining ortishi bilan 2 o'zgaruvchining kamayishi tendentsiyasi mavjud. Favqulodda qarorlar bilan (3-o'zgaruvchi) 0,112\*, Sezuvchan maxsus moslamalar (5-o'zgaruvchi) 0,102\*  $p<0.1$  oralig'ida statistik jihatdan ahamiyatli qiymatlarda teskari munosabat mavjud (3-jadval).

3-jadval. Pearson juft korrelatsiya testi

Variables	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)	(6)	(7)
(1) Oldini olish b-i	1.000						
(2) Evakuatsiya reja	-0.182*	1.000					
(3) Favqulodda qaror	-0.112*	0.102*	1.000				
(4) Ot_ochirish_yo-i	-0.144*	0.274*	0.104*	1.000			
(5) Sezuvchan maxsus	-0.102*	0.204*	0.003	0.336*	1.000		
(6) Yongin_xavf_ba-i	-0.005	0.025	0.018	0.024	0.038*	1.000	
(7) Yogin_riskimi_t-i	0.061*	-0.084*	0.002	-0.018	-0.073*	-0.009	1.000

\*\*\*p&lt;0.01, \*\*p&lt;0.05, \*p&lt;0.1

Tadqiqot ishining regressiya modeli hisob-kitoblariga ko'ra, o'rtacha bog'liq o'zgaruvchi 5,414 ( $SD = 2,318$ ), R-kvadrat qiymati (0,274) mustaqil o'zgaruvchilar bilan izohlangan bog'liq o'zgaruvchidagi dispersiya ulushini ifodalaydi. F-test statistikasi 7,190 ( $p<.001$ ) va tanlama hajmi 3002 ekanligini aniqladi. F-testi modelning umumiy ahamiyatini tekshiradi. Past p-qiymati (0.000) kamida bitta mustaqil o'zgaruvchining bog'liq o'zgaruvchini sezilarli darajada bashorat qilishini anglatadi.

□ Farg'on'a viloyatida Andijonga qaraganda yong`inlarning oldini olish bahosi 0.436 ga yuqori bo`lib  $p<0.1$  oralig'ida statistik jihatdan ahamiyatli;

□ Qoraqalpog'iston respublikasida yong`inlarning oldini olish bahosi Andijonga qaraganda 0.57ga yuqori bo`lib  $p<0.1$  oralig'ida statistik jihatdan ahamiyatli;

□ Toshkent shahrida yong`inlarning oldini olish bahosi Andijonga qaraganda 0.53ga yuqori bo`lib  $p<0.05$  oralig'ida statistik jihatdan ahamiyatli;

□ Uyda qoluvchi ijtimoiy statusga ega respondentlar davlat ishchilariga qaraganda yong`inlarning oldini olish bahosini 0.34  $p<0.05$  oralig'ida statistik jihatdan ahamiyatlik qiymatda yuqori baholagan;

□ Uylarda evakuatsiya rejasini mayjud bo`lmagan respondentlar mayjud deb qayd etganlarga qaraganda yong`inlarning oldini olish bahosini 0.60  $p<0.05$  oralig'ida statistik jihatdan ahamiyatlik qiymatda yuqori baholagan;

□ Favqulodda vaziyatlarda 101ga telefon qilaman deb qaror qabul qilgan respondenntlar o'ylab ko`rmaganman qaraganda yong`inlarning oldini olish bahosini 1.201  $p<0.05$  oralig'ida statistik jihatdan ahamiyatlik qiymatda yuqori baholagan;

□ O't o'chirish vositalari mayjud uylar mayjud bo`lmaganlarga qaraganda yong`inlarning oldini olish bahosini 1.201  $p<0.05$  oralig'ida statistik jihatdan ahamiyatlik qiymatda yuqori baholagan;

□ Uylarda yo'ngin riski ekspertizasini o'tkazishga rozilik bildirganlar qarshilarga qaraganda yong`inlarning oldini olish bahosini 0.208  $p<0.05$  oralig'ida statistik jihatdan ahamiyatlik qiymatda yuqori baholagan.

□ Yong`inlarning oldini olish bahosining yong'in uskunalarini o'z hisobidan ornatish orasidagi marginal ta'sirlar hisoblanganda quyidagi natijalar kutilmoqda:

4-jadval. Birinchi darajali oddiy to'g'ri chiziqli regressiva modeli  
(First stage OLS model)

Oldini olish bahosi	Coef	Std Err.	t-value	p-value	[95% Conf. Interval]	Sig.
<b>Hudud</b>	0					
Buxoro	.139	.273	.51	.611	-.396	.674
Farg'on'a	.436	.247	1.77	.078	-.048	.92
Jizzax	.047	.305	0.15	.878	-.552	.645
Namangan	.232	.262	0.89	.374	-.281	.745
Navoiy	-.031	.276	-0.11	.911	-.572	.51
Qashqadaryo	.115	.232	0.50	.619	-.339	.57
Qoraqalpog'iston R.	.57	.297	1.92	.055	-.013	1.153
Samarkand	.186	.254	0.73	.464	-.312	.685
Sirdaryo	.227	.418	0.54	.587	-.592	1.046
Surxondaryo	.432	.328	1.32	.188	-.212	1.075
Toshkent	.523	.21	2.49	.013	.112	.935
Toshkent viloyat	.217	.234	0.93	.354	-.242	.676
Xorazm	.114	.383	0.30	.766	-.637	.864
<b>Material</b>	0					
Gaza_shlah_blok	-.272	.255	-1.07	.286	-.772	.228
Pasta	-.23	.139	-1.66	.097	-.502	.041
Pishgan_sizit	-.149	.111	-1.34	.182	-.367	.07
Yog'och	-.207	.267	-0.77	.439	-.731	.317
<b>Mulk_shahali_basseb</b>	0					
Kredit	.088	.223	0.39	.695	-.351	.526
Xususiy	-.002	.122	-0.01	.989	-.241	.238
<b>Ijtimoiy status :</b>	0					
Tadqiqotchi	.073	.102	0.72	.473	-.127	.274
Tadqiqotchi	-.034	.157	-0.22	.828	-.342	.274
Uyda	.359	.159	2.26	.024	.048	.671
<b>Evakuatsiya rejasni</b>	0					
Yo'q	-.605	.089	-6.83	0	-.779	-.431
<b>Favqulodda qaror</b>	0					
101 telefon	1.201	.32	3.76	0	.574	1.828
Biroqa yordamlash-h	.893	.329	2.71	.007	.247	1.539
O'chirishga harakat	.566	.328	1.73	.084	-.077	1.208
Uyini takif etish	.651	.335	1.94	.052	-.006	1.308
<b>Ot o'chirish vositalari</b>	0					
Yo'q	-.431	.109	-3.94	0	-.645	-.216
<b>Sezuvchan maxsus ushlama</b>	0					
Yo'q	-.291	.133	-2.19	.029	-.552	-.03
<b>Vonkin_xavf_bahosi</b>	0					
past	.239	.106	2.27	.023	.032	.446
xusfi	.047	.117	0.40	.69	-.183	.277
<b>Yog'ini riskini ekspertizasi</b>	0					
pozitiv	.208	.092	2.27	.023	.028	.388
Oz_hisobidan_ornatish	.032	.078	0.41	.68	-.121	.186
Constant	4.957	.421	11.77		4.131	5.782
Mean dependent var	5.414	SD dependent var			2.318	
R-squared	0.274	Number of obs.			3002	
F-test	7.190	Prob > F			0.000	
Akaike crit. (AIC)	13402.539	Bayesian crit. (BIC)			13606.778	

\*\*\*p&lt;0.01, \*\*p&lt;0.05, \*p&lt;0.1

□ Aholi o'z hisobidan 5 mln. so'm mablag` ajratsa yong`inlarning oldini olish bahosi  $p<0.05$  oralig'ida statistik jihatdan ahamiyatlik qiymatda 5.552 ga yetadi;

□ Aholi o'z hisobidan 30 mln. so'm mablag` ajratsa yong`inlarning oldini olish bahosi  $p<0.05$  oralig'ida statistik jihatdan ahamiyatlik qiymatda 6.361 ga yetadi (3.1.5-jadval).

#### Natijalar interpretatsiyasi (Discussion/Обсуждение).

Heteroskedastiklik tekshirish uchun Breusch-Pagan/Cook-Weisberg testidan foydalaniildi. Testning nol gipoteza ( $H_0$ ) - doimiy dispersiya mavjud (farqlar o'zgarmas(Constant variance)), ya'ni xato atamalari mustaqil o'zgaruvchilarning barcha darajalari bo'yicha bir xil dispersiyaga ega. Biz  $H_0$ ni qabul qilish shartini Stata 18.0 dasturida tekshiranimizda tset statistikasi, chi-kvadrat (chi2) 0,98 va tegishli Prob > chi2 = 0.3221,  $p>0.05$  qiymati oralig'ida statistik jihatdan ahamiyatli deb topilmoqda. Bu esa modelning regressiya jami xatoliklar farqi xatoligi turli xil dispersiyalarga ega ekanligini ko'rsatadigan muhim dalillar yo'q, ya'ni doimiy dispersiya haqidagi taxmin rad etilmaydi.

#### Maqola bo'yicha xulosha va takliflar (Conclusions/Заключения).

Modelning to'g'ri tanlanganligini aniqlashda biz linktestdan foydalandik. Test shartiga ko'ra bog'liq o'zgaruvchining kvadrat funksiyasi real hayotga mosroq natija beradimi degan gipotezani uning  $p>0.05$  qiymati oralig'ida rad eta olmaslik shart. Regressiya natijasini hisobga olgan holda, ikkita mustaqil o'zgaruvchini\_hat va\_hatso. Ushbu o'zgaruvchilar bilan bog'liq koefitsientlar har bir mustaqil o'zgaruvchining bog'liq o'zgaruvchiga taxminiy ta'sirini ifodalaydi. Masalan, \_hat o'zgaruvchisi uchun koefitsient 0,904 standart xato bilan 0,933 ga teng. T-qiyomi 0,970, bog'liq p-qiyomi esa 0,333 bo'lib, bu koefitsientning statistik ahamiyatga ega yoki yo'qligini ko'rsatadi. Xuddi shunday, \_hatsq o'zgaruvchisi 0,009 koefitsientiga ega, lekin p-qiyomi 0,917, bu statistik ahamiyatga ega emas.

#### References:

- [1] Ankit, Kumar., Rachna, Khare., S., Mujaffar, And, C.K., Sankat., Pratyush, Madhavi. (2022). Fire safety assessment for older adults in high-rise residential buildings in India: a comprehensive study. International journal of building pathology and adaptation, [2] Xinyou, Liu. (2021). Discussion on Solution to the Problem of Fire Supervision in Urban Residential Buildings. doi: 10.32629/AES.V2I2.330
- [3] V., Charles, Ward. (2022). Fire Safety Law. doi: 10.1201/9781003291893
- [4] V., M., Dashko. (2022). Modeling of fire risk management support in the residential sector during individual insurance. Tehnologii tehnosfernoj bezopasnosti, doi: 10.25257/tts.2022.3.97.160-170

---

*Maxsus son 2024*

[5] Manan, N., Hasan, N.I., Ghafar, N.A., & Jamal, N.F. (2020). Fire Risk Assessment of Residential Buildings Based on Fire Statistics from Selangor.

[6] Hamida, M.B., & Hassanain, M.A. (2019). Fire safety in the built-environment: a case study in a residential facility. architecture, civil engineering, environment, 12, 27 - 34.

[7] Herr, C.M., Holzer, D., Kaijima, S., Kim, M.J., & Yan, W. (2015). Fatal fire risk checking for residential building design.

[8] Andrea, V.L. (2018). Strategies for preventing fire in high-rise residential buildings /Andrea Valerie Law.

..